

XITOY UNIVERSITETLARI BOSQICHIDA KREDITLAR TIZIMI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7335211>

*Shorustamov Shoqosim Shoraximovich
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoy filologiyasi kafedrasи o'qituvchisi
shorustamov89@inbox.ru*

Annotation. As a new teaching management system, credit system plays an important role in promoting China's educational reform and personnel training. The reform of the credit system in China shows the characteristics of paying attention to the development of students' personality, adopting the flexible educational system, establishing the tutorial system, carrying out the credit system charging and emphasizing the management by objectives. The reform of the credit teaching management system is an important measure to promote the quality of undergraduate education in colleges and universities.

Keywords: credit system; teaching management system; reform; curriculum construction

Annotatsiya. Yangi o'quv boshqaruv tizimi sifatida Xitoyning ta'lif sohasidagi islohotlar va kadrlar tayyorlashda kredit tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoy mamlakatidagi kredit tizimini isloh qilish talabalarning shaxsiyatini isloh qilish xususiyatlarini ko'rsatib, kredit tizimini maqsadlar bo'yicha boshqaruvni ta'kidlab, o'quv tizimini ishlab chiqish va boshqaruvni ta'kidlab, o'quv tizimini rivojlantirishga e'tibor berish xususiyatlarini ko'rsatmoqda. Kredit o'qitish tizimini isloh qilish universitetlarda bakalavr ta'limi sifatini oshirish uchun muhim chora.

Kalit so'zlar: kredit tizimi; o'quv boshqaruv tizimi; islohot; o'quv dasturining qurilishi

I. Turlari va uning xususiyatlari

1978 yildan boshlab Xitoya ta'lif tizimini isloh qilish chuqurlashishi bilan, Xitoya turli xil kredit tizimlari paydo bo'ldi¹. Uning turlari va xususiyatlari quyidagilarga bo'linadi:

1.1 To'liq kredit tizimi.Uning xususiyatlari: o'quv yilining cheklovlaridan voz kechish; mutaxassislik bo'yicha ta'lif olishning an'anaviy ta'lif olish metodini o'zgartirish, uzulishlar bilan mutaxassislikni o'rganish hamda bir vaqtning o'zida ikki mutaxassislik bo'yicha ta'lif olish mumkin²; fanni o'rganishning asl qoidalarini sindirish, tanlov fanlarning nisbati ko'payishi;o'qituvchi va talabalar ikki tomonlama teng ravishda tanlovni amalga oshirilishi; Kattalar ta'limi va oddiy ta'lif o'rtafigi chegarani buzish kabi. Masalan Sian transport universiteti, Fudan universiteti, Jinan universiteti, Pekin texnologiyalari universitetlari to'liq kredit tizimini fakultetlarda tajriba qilishdi.

1.2 Rejali kredit tizimi³. Ushbu kredit tizimining xususiyati nafaqat Yevropa va Amerikaning kredit tizimi samaradorligini muhim ko'rsa, balki rejaviy yo'l-yo'riq ko'rsatuvchiligiga urg'u beradi, bu nafaqat mutaxassislar tayyorlashning asosiy mezon talablarini kafolatlaydi, balki talabalarning bilim darajasini iloji boricha kengaytiradi. Majburiy fanlar va tanlov fanlarning nisbati 7:3, majburiy fanlar minimum darajada, tanlov fanlar chegarasiz amalga oshiriladi, majburiy umumiylasosiy fanlar, mutaxassislik fanlari, qisman fanlararo fanlar. Tanlov fanlarining turlari ko'proq bo'lib, nafaqat mutaxassislik bilimlarini kuchaytiruvchi balki ilmiy-tadqiqot fanlalari ham mavjud, shuningdek, gorizontal jihatdan bilimlar resursini kengaytirish fanlari ham mavjud, shu bilan birga

¹教育部. 关于深化本科教育教学改革全面提高人才培养质量的意见[EB/OL]. (2019-10-08) [2021-05-20].

²教育部. 关于深化本科教育教学改革全面提高人才培养质量的意见[EB/OL]. (2019-10-08) [2021-05-20].

³蔡爱萍, 李永全, 牛红军, 等. 农林高校学分制教学管理体制改革探究[J]. 中国管理信息化, 2018 (7) :

gumanitar fanlar, aniq fanlar, muhandislik va texnologik fanlar, menejment va boshqaruvga aloqador fanlar mavjud. Masalan Pekin universiteti, Vuhan universiteti, Nankin universitetlari rejali kredit tizimini tajriba qilishdi.

1.3 O‘quv yili kredit tizimi⁴. O‘quv yili va kredit tizimining ma’lum bir boshqaruvi usullarini birlashtirib, o‘quv yili va semestr talabalarga kreditni olish uchun aniq talablar mavjud.O‘quv rejasining cho‘ziluvchanligi kredit tizimi rejasidan biroz kamroq, odatda vaqtidan oldin kreditni to‘liq bajarilganlarga muddatidan oldin o‘qishni bitirishiga ruxsat berilmaydi.Majburiy fanlar 70% ni tashkil qiladi, har bir fanni o‘qish majburiy, boshqa tanlov yo‘q; tanlov fanlar ko‘p bo‘lmaydi, darslarni tanlash erkinligi darajasi katta emas.Masalan, Sharqiyl Xitoy pedagogika universiteti, Jilin universiteti va boshqa universitetlar o‘quv yili kredit tizimini amalga oshirdi.

1.4 To‘liq yuklamali kredit tizimi⁵. Har tomonlama talabalarning axloqi, aqli, o‘zini tutishi kabi tomonlariga bo‘lgan talablari “kredit”miqdori orqali o‘lchanadi, fan krediti esa darsda hamda darsdan tashqari o‘qish uchun qilinishi kerak bo‘lgan mehnatlariga asoslanib qo‘lga kiritiladi; yuklama rejadagi kreditni fanning turi, harakteristikasi, o‘rni, qiyinlik darajasi, yangilik darajasi va boshqa farqlariga asoslanib to‘liq kuch yoki yuklamali koeffitsentiga tegishliligi ajratiladi, rejali kreditni yuklamali koeffitsentiga ko‘paytirilsa haqiqiy kredit kelib chiqadi, rejali kredit talabalar boshqaruvi yuklamali koeffitsent esa talabalarning o‘qish sifatini baholash afzalliklaridan foydalanib, rag‘batlantirish asosini tashkil qiladi. Masalan Pekin aviatsiya va kosmonavik universiteti ushbu kredit tizmi turini amalda qo‘lladi.

1.5 Murakkab kredit tizimi. Ta’lim bosqichi yoki o‘quv dasturidan farq qiladi, o‘quv yili tizimi hamda kredit tizimini ajratib boshqarish usulidan fodalanadi, masalan birinchi ikki yil o‘quv yili tizimidan foydalanilgan bo‘lsa keyingi ikki yil yoki uch yil kredit tizimidan foydalanish: majburiy fanlar o‘quv yili tizimidan, tanlov fanlar kredit tizimidan foydalandi. Bunday tur asosan kam sonli muhandislik hamda tibbiy fanlar o‘qitiladigan fakultetlarda foydalaniladi.

1.6 Maxsus tuman kredit tizimi. Shenzhen universiteti ushbu kredit tizimidan foydalanadi, maxsus tumanning iqtisodiy vaziyatidan kelib chiqib, maxsus tumanning har xil insonlarining talablariga moslashuvchi kredit tizimidir. Bu turdag‘i kredit tizimi rejası samaraliroqdir, talabalarning umumiyy o‘qiyidagi fanlaridagi tanlov darajasi ko‘proq bo‘lib, mutaxassislikni tanlash va o‘zgartirish ham samaraliroqdir. Ta’limni boshqaruvidagi yuqori qatlardagilar Yevropa va Amerika kredit tizimining samaradorligini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishadi.

Yuqoridagi kredit tizimlarida farqlar mavjud bo‘lsa-da, ammo ba’zi umumiyy tomonlari ham mavjud. Birinchidan, Xitoy kredit tizimi mutaxassislikning asosini saqlagan holda amalga oshiriladi. Bu Amerikaning bakalavr ta’limidan far qiladi, ham Sovet Ittifoqi bakalavr ta’limidan farq qiladi. Avvalgilar odatda mutaxassislikka ajratmasdan, “ko‘p qirrali shaxs”ni tarbiyalashga e’tibor qaratishardi⁶. Keyingilar esa mutaxassis yetishtirishga e’tiborni qaratishdi. Ikkinchidan, Xitoy kredit tizimining yetakchi g‘oyasini amalga oshirishi talabalarning yuksalishini rag‘batlantirish, lekin aslida katta e’tiborni ta’lim sifatining umumiyy rivojlanishiga qaratadi. Bundan tashqari, ta’lim boshqaruvida semestr, o‘quv yili limiti aniqroq. Kreditlarni hisoblashning ikki usuli mavjud: Birinchi turi asosan auditoriyada o‘qitish jarayoniga asoslanadi, haftasiga bir soat, bir semestrlik to‘liq dars soatlari bir kredit, darsdan tashqari mustaqil ta’lim, uyg‘a vazifa laboratoriya ishlari va mahorat darslarini bajarish shart emas, har hafta 2-3 soat dars o‘tib, bir semestrda bir kreditni olish mumkin. Ikkinchisi turidars vaqt va darsdan tashqari vaqtida haftalik soatlar birga hisoblanadi. Masalan haftasiga bir soat dars o‘tilsa, darsdan tashqari mustaqil ta’lim, uyg‘a vazifalar va qo‘sishma darslar kabilar ikki soatlik dars vaqtida hisoblanadi, har semestr uch kreditni tashkil

⁴ 蔡爱萍, 李永全, 牛红军, 等. 农林高校学分制教学管理体制改革探究[J]. 中国管理信息化, 2018 (7) :

⁵ 蔡爱萍, 李永全, 牛红军, 等. 农林高校学分制教学管理体制改革探究[J]. 中国管理信息化, 2018 (7) :

⁶ 陈涛. 再探学分制——学分制的形成、发展、问题及展望[J]. 现代教育管理, 2013 (9) : 58-62.

qiladi. Hozirgi kunda bir so‘z mashhur - Xitoy universitetlari tomonidan amalga oshirilayotgan kredit tizimi soxta kredit tizimidir, bu gap faqat bir tomonlamadir, noto‘g‘ri, kredit tizimi haqida noto‘g‘ri tushunchadir, haqiqiy kredit tizimi qanaqa, “to‘liq” “puxta” kredit tizimi qanaqa? Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak dunyoda kredit tizimini amalda qo‘llanib kelayotgan oliy ta’lim muassasalari, shu o‘rinda kredit tizimi modeli va aniq qoidalari, ularning aksariyati davlat sharoiti va ta’lim maskani sharoitlariga asoslanadi, bitta to‘liq model nusxa ko‘chirilishi mumkin emas. Yaponiya kredit tizimi va Yevropa Amerika davlatlarining kredit tizimida aniq ravshan farqlar mavjud, garchi Amerika amalda qo‘llayotgan erkinlik darajasi yuqoriroq bo‘lgan kredit tizimi bo‘lsa ham, har bir ta’lim muassasasi kredit hisoblashi, ta’lim muddati, turli fanlarning ulushi, ta’lim va baholar boshqaruvi usuli tomonidan farqli talablarga egadir, masalan Garvard universiteti dars vaqtidagi soatlar orqali kreditni hisoblaydi, talaba 160-180 kredit to‘plasa talabga javob beradi, Massachusetts Texnologik instituti esa dars vaqtidagi va darsdan tashqari soatlarni umumiy hisoblab, umumiy 340-360 kreditni tashkil qilishi kerak; Yaponiya oliy ta’lim muassasalari esa o‘quv yili kredit tizimini foydalanib kelgan; Islohot va ochilishdan beri Xitoy universitetlari kredit tizimni amalga oshirish jarayonida kredit tizimlarining turli xil uslublarini yaratdi, masalan yuqoridagi o‘quv yili kredit tizimi, rejali kredit tizimi, murakkab modul kredit tizimi, to‘liq yuklamalni kredit tizimi, maxsus tuman kredit tizimi kabilar. Ushbu kredit tizim modellari, har bir universitetlar tomonidan milliy sharoitlar, tumanlar va ta’lim maskani sharoitlari bilan birlgilikda umumlashtiriladi, garchi aniq uslubi va dolzarbligida farq qilsa-da, lekin xalqaro kredit tizimining xusuxiyatlarini o‘zida qamrab olgan, masalan talabaning o‘qishini kredit orqali o‘lchash; o‘quv rejasiga albatta aniq moslashuvchan bo‘lishi; kredit tizimiga yo‘naltirilgan o‘quv tizimiga asoslangan bir qator o‘quv-darslarni boshqarish tizimlari shakllantirildi. Bundan tashqari Xitoy milliy sharoitlari bilan birlashtirilib, bosqichma bosqich ba’zi muvaffaqiyatli tajribalarni o‘rganmoqda, bu ta’limni isloh qilish va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha amaliy natijalarga erishdi, shuning uchun Xitoy universitetlarining kredit tizimini amalga oshirishda erishgan yutuqlarini tan olish kerak, uni soxta kredit tizimi deyish haqiqatga mos kelmaydi. Shunday qilib, “to‘liq kredit tizimi” va “puxta kredit tizimi” yo‘q narsa, kredit tizimining o‘zi rivojlanish holatidagi jarayonidir, o‘zgarmas natijali emasdir. Aniq bir modeldagagi kredit tizimi eng yaxshisi deb aytolmaymiz, har handay davlat uchun, o‘sha davlatning milliy sharoitiga mos keluvchi kredit tizimi eng yaxshi tanlov hisoblanadi.

II. Xitoy universitetlari kredit tizimining hozirgi holati tahlili

Hozirgi vaqtida Xitoy faol ravishda kredit tizimini qo‘llab-quvvatlamoqda va doimiy ravishda tan olmoqda, bu asosan quyidagi uch sababga bog‘liq:

2.1 Xitoy allaqachon dastlabki mukammal sotsialistik bozor iqtisodiyoti asosini qurdi. Bozor iqtisodiyoti erkinlikni, tenglikni, raqobatni hamda foya keltirishni targ‘ib qiladi, kredit tizimini o‘quv yili tizmi bilan taqqoslasak aynan ushbu tamoyil oliy ta’limda gavdalangan, lekin bozor iqtisodiyoti har sohadagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji shubxasiz kredit tizimining rivojlanishiga bo‘lgan ulkan sababdir.

2.2 Intellektual iqtisodiyot, axborot jamiyatining kirib kelishi. XX asrlarning 90-yillaridan boshlab, axborot texnologiyalari asosida to‘rtinchchi sanoat inqilobi ko‘tarildi, insoniyat allaqachon axborotlashgan jamiyatga kirishdi. Axborotlashgan jamiyatning xususiyati bilimlarning keskin o‘sishi hisoblanadi, yangi va eski bilimlarning almashinish sikli to‘xtovsiz qisqardi. Amerikalik olim James Martinning taxminiga ko‘ra: insoniyatning bilimi 19 asrda taxminan har 50 yilda bir karra oshadi, hozir taxminan 3 yilda bir karra oshmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi doimiy ravishda yangi fanlarni ishlab chiqarmoqda, fanlararo fanlar paydo bo‘lmoqda, bularning hammasi oliy ta’limda ta’lim tarkibi, ta’lim usuli, o‘qitish va o‘qish munosabati shu kabi tomonlaridan katta o‘zgarishni talab qiladi. O‘quv yili tizimi jamiyat hayotining tezkor o‘zgarishiga farosatsizcha javob qaytardi, bu esa harakatsiz suiste’mollikni namoyon qiladi. Universitet ta’lim tarkibi nuqtai nazarini rejalashtirishi yoki talabaning o‘qishga nisbatan fikrini taqqoslaganimizda

kredit tizimi erkin ilmiy va madaniy bilimlarning xususiyatlarini ko'rsatadi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, kredit tizimidagi ta'lif boshqaruvi aynan ta'lif inqilobi shartlarini to'liq qondiradi.

2.3 O'z-o'zini tanlash, mukammal iste'dod bozori asta-sekin shakllantirish. Tayyorish qidirish kanallari hamda kadrkar bozorining amalga faoliyat yuritishi bu kredit tizimining shartlaridan biri hisbolanadi. Chunki kredit tizimi kurs, fakultet hamda mutaxassislik chegarasini bekor qildi, talaba kreditni to'playolsa bo'lgani istagan vaqtida o'qishni bitirib ish qidirishi mumkin; bundan tashqari sotsialistik bozor iqtisodiyoti sharoitida bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash o'zgaruvchan kadrlar bozori orqali amalga oshiriladi, kredit tizimi kadrlari bilimi xilma-xilligi va moslashuvchanligi bilan o'zgaruvchan va turli xil kadrlar bozori talablariga moslashishi osonroq.

1978 yildan hozirgi kungacha Xitoyning ta'lif hamjamiyati o'quv yilining kamchiliklarini to'liq tan oldi va uni kredit tizimi bilan almashtirishga harakat qildi, biroq, uzoq vaqt davomida kredit tizimi qiyinchiliklarga duch keldi, o'quv yili tizimi hanuzgacha o'quv yili boshqaruv tizimida ishlatilmoqda, chunki:

- Xitoy "Sotsializmning asosiy bosqichi"ning haqiqati. Partiya islohoti va ochilish siyosati Xitoyning tovar iqtisodiyotini rivojlantirish va bozor iqtisodiyotining yuksalishiga katta turtki berdi, Xitoy jamiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishga ko'maklashdi. Lekin G'arbiy kapitalistik mamlakatlardagi ba'zi chirigan va xunuk narsalar ham kirib kelib Xitoylek yoshlarning ongini zaxarlay boshladi, merkantilizm, gedonizm, haddan tashqari individualistik fikrlar ba'zi odamlar orasida ko'paydi va tarqaldi, ushbu masalalar universitetlarning mafkuraviy va siyosiy ishlariga yangi mavzular va muammolarni ilgari surdi, kredit tizimini joriy etish uchun ko'plab muammolar keltirib chiqardi.

- Xitoy ijtimoiy haqiqati. Hozirgi vaqtida Xitoya oliy ta'lifning ommaviyligi yuqori emas, xuddi shu yoshdagi yoshlarning qariyb 5 foizi, ya'ni Xitoyning oliy ta'lif muassasalari hali ham yoshlarni uchun "Xitoyning elita ta'lif"dir, hali ham ommalashish darajasi uncha yuqori emas, shu sababli universitetlar ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, ham talabaning individual ehtiyojini inobatga olish, ham jamiyat va davlat ehtiyojlarini inobatga olish bu albatta tabiiy ravishda kredit tizimini amalda qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladi.

- Universitetlarning haqiqati. Kredit tizimi o'quv yili tizimiga nisbatan, fanlar tizimiga, o'quv dasturiga, o'qituvchilar darajasiga, apparat konfiguratsiyasi va boshqaruv darajasi bo'yicha yuqori talablar qo'ydi

- Jamoatchilik tushunchasi. Pedagoglarda har tomonlama ta'lif berish odati mavjud bo'lib, uzoq vaqt davomida talabalarning barcha jihatlarini boshqarish kerak, o'ylashadiki shunday bo'lsagina kadr tayyorlash mas'ulyati har tomonlama bajarilishi mumkin, lekin talabalarga azaldan o'z fikri va bilimi hamda tashabbusi kamlik qilgan, osongina o'quv yili tizimi rejalashtirgan modelda eski dastur bo'yicha ta'lif olishgan. Bundan tashqari, kredit tizimiga mos keladigan ijtimoiy tushunchalar masalan insonlarning "o'ziga xosligi"ga hurmat bilan qarash hali ham nisbatan yetishmaydi. Islohot va ochilish Xitoyning ijtimoiy tushunchalarida juda ko'p o'zgarishlarga olib keldi, lekin, Xitoy xalqi ming yillar davomida to'plangan an'anaviy madaniyat xalq ongida qattiq o'rashib qolgan - odamlarning guruhanishiga, "mustaqil" "barcha tan olgan obro'li o'qituvchi" kabi an'anaviy tushunchalar har doim odamlarning fikrlash tarzi va harakatlariga ta'sir ko'rsatdi. Yuqoridagi ikki qarama-qarshilik Xitoyning oliy ta'lif tizimida Xitoy sotsializmning birlamchi bosqichining milliy sharoitlari, iqtisodiy texnologiyalarning o'tish davri haqiqatiga muvofiq. So'nggi bir necha o'n yillikda, o'quv yili tizimi haqiqatan ham rejalashtirilgan iqtisodiy tizimga molashtirilib ijtimoiy muhit hamda ta'lif boshqaruvi modeli rivojlanishida muhim vazifa bajardi, garchi universitetlar kredit tizimini amalda qo'llashda turli xil qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklarga duch kelsalar ham, lekin kredit tizimi o'quv yili tizimini o'rnini egallashi qaytarib bo'lmaydigan tendensiya hisoblanadi.

III. Xitoy universitetlarida kredit tizimining rivojlanish tendensiyasi

Kredit tizimi allaqachon bozor iqtisodiyotining ehtiyojlarini qondiradigan yanada ilg‘or ta’lim boshqaruv tizimligi isbotlanganligi sababli Xitoy sotsialistik bozor iqtisodiyot tizimini tashkil etish va doimiy ravishda takomillashtirish bilan kredit tizimi Xitoy universitetlarining o‘qitish tizimining asosiy yo‘nalishi bo‘lib, u tobora takomillashib va mukammal bo‘lib bormoqda.

3.1 Kredit tizimi Xitoy universitetlarining asosiy o‘quv modeliga aylandi.

So‘nggi yillarda Xitoy universitetlari asosan ro‘yxatga olish va unifikatsiyalash ishlarini yakunladi, talabalarning o‘qish to‘lovini Xitoyning oddiy aholisi qabul qildi. Bitiruvchilarning ishga joylashishi ham ikki tomonlama tanlov asosida bo‘lishi yo‘lga qo‘yildi. Shu sababli, universitetlar talabalarning qiziqishlari, sevimli mashg‘ulotlari va individual farqlaridan kelib chiqib, samarali ta’lim tizimini ishlab chiqdi, bu bilan kadrlar bozori ehtiyojini qondirdi. Bu kelajakdagi Xitoy universitetlarining yanada rivojlanishi uchun asosdir.

3.2 Kredit modul tizimining xilma xilligi. Kredit tizimi bu ta’lim boshqaruv tizimining bir turi hisoblanib, ta’lim muassasalari ham ta’lim maskanlarida ham albatta bir biridan farq qiladi. Hozirgi kunda turli xil kredit tizimlari mavjud, bundan keyin insonlarning kredit tizimiga bo‘lgan tushunchasi tobora chuqurlashishi va amaliyotga keng qo‘llanilishi bilan kredit tizimi yanada standartlashtirilmoqda, lekin Xitoy universitetlarining tashkil topish tarixi, universitet miqyosi, ta’lim maqsadlari, mablag‘ manbalari, o‘qituvchilar mahorati, talabalarning manbasi, geografik muhit va shu kabi tomonlardan farqlar mavjud bo‘lib, xilma-xillik modeli tabiiy mavjud bo‘ladi, barcha universitetlar o‘z xususiyatlarga mos keladigan kredit ta’lim tizimini ishlab chiqishgan.

3.3 O‘quv dasturini tanlash va murabbiy tizimini takomillashtirish kredit tizimini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan birdir. Kredit tizimi har doim fan tanlash tizimi bilan birlashtirildi, so‘nggi yillarda fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi fanning yangi tarmog‘i, fanlararo fanlar yaratilishi, bunday vaziyatda tabiiy fanlar va gumanitar fanlarning bir biri bilan aralashib ketishiga e’tibor qaratish lozim, aniq fanlar, muhandis va texnik fanlar, gumanitar fanlar, biznes va boshqaruv fanlariga alohida urg‘u beriladi, bu universitetlardan ta’lim tarkibi va o‘qitish usullarini isloh qilish uchun islohot olib borishini talab qiladi. Hozirgi kunda barcha universitetlar ilmiy rahbar tizimini ishlab chiqishdi, biroq, bakalavr bosqichi rahbarlarining ish shartlari aniq emasligi sababli o‘qituvchilar ham rahbar sifatida ishni qayerdan boshlash kerakligini bilishmaydi. Ilmiy rahbar tizimini takomillashtirish kelajakdagi ishning diqqat markazida bo‘ladi

3.4 Kredit tizimini rivojlantirish oliy ta’limni isloh qilish va rivojlantirishda yutuqdir. Xitoy davlat korxonalari, davlat idoralari, muassasalari va sanoat bo‘limlarini keng isloh qildi va g‘ayratlanuvchi yutuqlarga erishdi, oliy ta’lim islohoti esa sekinroq namoyon bo‘ldi, o‘quv dasturlarini yaratish, o‘qishlarni birlashtirish, hamkorlikda o‘qishlarni tashkil qilish hamda har bir universitet faol ravishda islohotlarni olib borishdan tashqari, har doim kadrlar va tizimlar kabi muhim hhisoblangan masalalarga nisbatan bag‘rikenglik va ehtiyyotkorlik bilan qaralgan. Kredit tizimi sharoitidakrlar tizimi islohoti tomonidan bir qancha masalalar aniq va ravshan yechimini topdi. Bundan tashqari hamkorlikda o‘qish tashkil qilish hamda har universitet faol raavishda islohot olib borishdan boshqa, kadrlar va tizimlarga nisbatan har doim bag‘rikenglik va ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lindi.

Kredit tizimi sharoitida kadrlar tizimi islohoti tomonidan ko‘plab masalalar aniq ravshan yechimini topdi. Bundan tashqari, kredit tizimi bo‘yicha fanlarning xilma-xilligi va birlashmasi bir necha yo‘nalishni tashkil qildi, talabalar turli xil yo‘nalishlarda rivojlanishi mumkin, umumiy oliy ta’lim, kattalar ta’limi, davom ettiruvchi oliy ta’lim, oliy proffessional ta’lim kabi turli darajadagi bosqichlarda amalga oshirishi mumkin.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- [1] 教育部. 关于深化本科教育教学改革全面提高人才培养质量的意见[EB/OL]. (2019-10-08) [2021-05-20].

[http://www.moe.gov.cn/srcsite/A08/s7056/201910/t20191011_402759.html.](http://www.moe.gov.cn/srcsite/A08/s7056/201910/t20191011_402759.html)

- [2] 教育部. 关于加快建设高水平本科教育全面提高人才培养能力的意见[EB/OL]. (2018- 10-08) [2021-05-20]. http://www.moe.gov.cn/srcsite/A08/s7056/201810/t20181017_351887.html.
- [3] 蔡爱萍, 李永全, 牛红军, 等. 农林高校学分制教学管理体制改革探究[J]. 中国管理信息化, 2018 (7) : 191-193.
- [4] 钟斌. 困境与突破: 地方高校学分制改革探究[J]. 黑龙江教育(高教研究与评估), 2017 (6) : 79-82.
- [5] 陈曦, 杨绍明, 刘永鑫, 等. 浅析当前高校学分制改革思考[J]. 科技资讯, 2017 (36) : 34-35.
- [6] 陈涛. 再探学分制——学分制的形成、发展、问题及展望[J]. 现代教育管理, 2013 (9) : 58-62.
- [7] 贾萍. 中外高校学分互认比较研究[J]. 当代教育论坛(综合研究), 2014 (4) : 32-34.
8. Abdullayevna, N. S. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии Насирова Саодат Абдуллаевна. *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ*, 3, 384.
9. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с* (p. 361).
10. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化. In 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0